

**O`SMIR YOSHLARGA INTERNETDAGI VIRTUAL
MULOQOTNING PSIXOLOGIK TA`SIRI**

Hamidova Feruza Raupovna

Navoiy viloyati Nurota tuman 2-umumta 'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`smir yoshlar o`rtasidagi virtual muloqot va uning ijtimoiy psixologik ahamiyati, internetdagi virtual muloqot tizimi mezonlarining tanlanishi, o`amirlar psixologiyasiga ta`sir qiluvchi omillar ko`rsatilgan va boshqa masalalari yoritilgan. Shuningdek maqolada o`smir yoshlarga internetdagi virtual munosabat omili mezonlari tanlanishining ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy jihatlari hamda ularni tadqiq qilishning jihatlari o`rganilgan.

Kalit so“zlar: osmir yoshlar, motivatsiya, virtual muloqot, ta`lim, tarbiya, islohot, o‘qituvchi, o‘quvchi, innovatsiya.

Hozirgi zamон axborot texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib, borayotgan davri-axborot texnologiyalar asri desak ham mubolaga` bo`lmaydi.Undagi har bir axborot yoki xabar ma`lumotlar zamон talabiga asosan har bir jabhada o`zining real voqeliklarga boyligi bilan hozirgi davrning axborot texnologiyalariga ehtiyoj sezmasligidan dalolat beradi. Chunki hozirda internet barcha tashkilotlarga, ijtimoiy muassasa o`quv yurtlariga va har bir xonadonlarga allaqachon kirib kelgan.Internet tarmoqlaridan foydalanuvchilar soni kundan-kunga haddan tashqari asosan, yoshlar foydalanishi hisobidan ortib bormoqda.Chunki yoshlar o`zlariga kurs ishi, referat yozish yoki turli mavzudagi kitoblar sotib olish yoki biror seminar treninglarga ishtirok etish uchun, bevosita kirib foydalanishmoqda. Internet ilm olish, dunyo yangiliklaridan boxabar bo`lish, shu bilan birga, ajoyib muloqot vositasi ham hisoblanadi.Hozirda real ko`z bilan qaraydigan bo`lsak, tarmoq o`z o`rnida bezorilik, jinoiy olami, zarari va ayrim muloqotlarning nomaqbullik tomonlari, o`sib kelayotgan yosh avlodga zarar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

keltiruvchi manba bo`lib qolayotganligi hech kimga sir emas.Oxirgi paytlarda internetda ko`pgina tajovuzkor va ijtimoiy xavfli holatlardan katta yoshdagi insonlar bolalarni asrab ularni qanday foydalanayotganliklarini nazorat qilib, e`tibor qaratishlari lozim.

TADQIQOT MATERIALLATI VA TEXNOLOGIYASI

Ayni damda axborot texnologiyalaridan foydalanuvchilar 950 milliondan oshgani, ularning soni kundan kunga oshib borishi hech kimga sir emas.Bular orasida kompyuterdan foydalanuvchilar tashkilotlarda ko`ra, balki maishiy turmush masalalarida, xonadonlarda va dam olishda keng shug`ullanishmoqda. Bu xalqaro an`anaga aylangan holat, mamlakatimizni ham chetlab o`tmaydi. Internetning o`sib kelayotgan yosh avlodni yangi qirralarini ochilishiga imkon bersa-da, uning ayrim muammolarni keltirib chiqarishi ayniqsa bilib-bilmay shu to`rga ilinishi, ayni damda hech qanday muammo bo`lmay qoldi, nazarimizda....Ayrim yoshlar internetdagi noma`lum kuchlar bilan yovuz niyatli odamlarga duch kelib qolmoqdalar. Internetdagi noma`lum muloqot ishonchli va do`stona munosabat o`rnatishga imkon yaratadi. Bundan foydalangan holda, tajribasiz yoshlarni o`ziga ipsiz bog`lab oladi.

Jinoyatchilar bolalar bilan axborotlar almashtirishda elektron pochta yoki forumlardan foydalanib, muloqotchanlik ustunligiga erishmoqda.Ko`pgina o`smirlar o`zlarining muammolarini konferensiyada virtual murojaat qiladilar.Yovuz niyatli kishilar esa bundan foydalanib,ularga eng yaqin insonidek, mehribonlik, g`amxo`rlik va sovg`alar ulashish kabi iltifotlari bilan o`smirlarni o`ziga qaratib olmoqda.

O`smirlar muammosiga e`tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari:

- 1) Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi natijasida madaniyat, san`at va adabiyotning iqtisodiy shart-sharoitning o`zgarayotganligi;
- 2) Ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli o`smir onglilik darajasining ko`tarilganligi;
- 3) Yoshlarning dunyo voqeа va hodisalaridan jamiyat qonun qoidalariidan yetarli darajada xabardorligi;
- 4) Ularning aqliy va jismoniy kamoloti jadallahsgani;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

5) O`smir yoshlar bilan ishlashda g`oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va tarbiyaga yondashuv zarurligi;

6) O`smir uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o`zini o`zi anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani;

Shuningdek ular yoshlar yoqtiradigan va qiziqadigan musiqa va filmlarni yaxshi o`zlashtirib olganlar. Ular o`smirlar muammosini tinglab hamdard bo`ladi. Yovuz niyatli kishilar sekin-astalik bilan suhbat mavzusi (intim mavzular)i tus berib boradi.Bu orqali o`smirlarning axloqiy taqiblarini susaytirib, suhbat mavzusini birdaniga shahvoniy mavzuga bog`lab, o`smirlarni kechinmalarini o`zlariga bog`lab, olishga erishadilar. Shuningdek o`smirlar bilan real kundalik turmushda uchrashish imkoniyatini ham erishadilar.Shuningdek jinoyatchilar real kundalik turmushda uchrashish imkonini ham baholashga ulguradilar.

XULOSA.

Alqissa, shuni aytish joizki, yoshlarni tarbiyalash uchun quyidagilarga e`tiborimizni quyidagilarga qaratishimiz lozim.Farzandingiz ko`p vaqtini internetda, chatda soatlab o`tirib qolishi, uy ishlari, vazifalari qolib, nima bilan mashg`ul ekanliklarini yashiradigan ko`pgina yoshlar firibgarlar tuzog`iga tushib qolmoqdalar.Shunday ekan, farzandingizga tayziq ostida emas, balki do`stona samimiylar saqlagan holda unga to`g`ri mativatsiya berib, kelajagi uchun bu yo`l tubsiz jarga olib borishi mumkinligini uqtirib, nazoratga olmogimiz har bir ota-onaning burchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muloqot va kommunikatsiya jarayonlari “Ziyo.uz” maqola
2. “Jurnalistika” 10 tomlik to’plam. O’zbekiston nashriyoti T:2019